

MAMLAKATIMIZDA BANK SOHASIDAGI MUOMMOLAR VA ULARNI  
BARTARAF ETISH YÖLLARI

Abdurahmonov A

*Bank ishi kafedirasi dotsentlari*

Juliboy o'g'li O

Juraqulova A

Ergashova F

*SamISI talabalari*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola bank xavfsizligini ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, bank biznesining iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari, Markaziy bank tomonidan banklarning moliyaviy manfaatlarning himoyalanganlik darajasi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakatdagi bank bozoridagi raqobat darajasi, Markaziy bank tomonidan bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sifatining darajasi, davlat bank tizimining kapitallashuv darajasi, moliyaviy xavfsizlik indikatorlari, jumladan, byudjet defitsiti, mamlakat milliy valyutasining barqarorligi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan bank tizimining iqtisodiy xavfsizligini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan islohotlarga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, bank biznesining iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar, bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi darajasi ko'rsatkichlari*

**Abstract:** *This article describes the socio-economic nature of bank security, external and internal threats to the economic security of the banking system indicators of economic security of banks by the Central Bank devoted to issues of the level of protection of financial interests and the level of competition in the country's banking market, the Central Bank The level of quality of regulation and control of banking activities by the state level of capitalization of the banking system, indicators of financial security, including the budget deficit, the stability of the country's national currency are analyzed. Also, the Central Bank of the banking system in the Republic of Uzbekistan attention to the reforms implemented to improve economic security directed.*

**Аннотация:** В данной статье описывается социально-экономическая природа банковской безопасности, внешние и внутренние угрозы экономической безопасности банковской системы показатели экономической безопасности банков ЦБ посвящен вопросам уровня защиты финансовых интересов и уровень конкуренции на банковском рынке страны, ЦБ Уровень качества регулирования и контроля банковской деятельности со стороны государства уровень капитализации банковской системы, показатели финансовой безопасности, в том числе анализируются дефицит бюджета, устойчивость национальной валюты страны. Также Центральный банк

банковской системы Республики Узбекистан внимание к реформам, проводимым для повышения экономической безопасности направлен.

**Keywords:** economic stability, economic security, external and internal threats to the economic security of banking, indicators of the level of economic security of the banking system, the level of competition in the banking market.

**Ключевые слова:** экономическая стабильность, экономическая безопасность, внешние и внутренние угрозы, экономической безопасности банковской деятельности, показатели уровня экономической безопасности банковской деятельности, банковская система, уровень конкуренции на банковском рынке.

## KIRISH

“Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlandi. Ushbu taraqqiyot strategiyasida mamlakatdagi davlatning iqtisodiy xavfsizligiga katta e'tibor qaratilgandir. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi - davlat xavfsizligini ta'minlovchi iqtisodiyot tizimining alohida elementi hisoblanib, jamiyat va davlatni iqtisodiy sohadagi ichki, tashqi tahdidlar va xavflardan. insonni hayotiy ehtiyojlari va manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda bank sektori muhim o'rin tutadi. Bank tizimi pul resurslarining katta qismini nazorat qiladi, ularning harakatini, taqsimlanishini va qayta taqsimlanishini ta'minlaydi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishiga, uning rivojlanishiga yordam beradi. Bank tizimining asosiy funktsiyalarini lozim darajada bajarmaganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni buzadi va mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri sifatida baholanadi. Umumiy ma'noda bank tizimining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligi - bu bank faoliyatining barqaror ishlashini ta'minlash uchun moliyaviy resurslardan eng samarali foydalanish, bank tizimi barqarorligiga ta'sir qiluvchi tahdidlarning oldini olish holati hisoblanadi. Bank tizimining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi - uning faoliyatining maksimal barqarorligiga erishish, shuningdek obyektiv va subyektiv tahdid omillaridan qat'iy nazar, bank tizimini rivojlantirish asoslari va istiqbollarini yaratishdir, kutilmagan moliyaviy holatlarning real sharoitida bu ayniqsa to'g'ri hisoblanadi. Bank sektorining ko'proq xavf-xatari bankning o'z resurslari va daromadlarini yo'qotishi yoki muayyan ishlarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlar kelib chiqishi, moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liqdir. Kredit va bank sektorining iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar xavfi xilma-xildir, biz ularni tashqi va ichki qismlarga bo'lib, o'rganishimiz mumkin.

Bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi darajasi quyidagilar bilan belgilanadi:(biz ularni ba’zi ko’rsatkichlarini ko’rib chiqamiz)

1. Bank bozoridagi raqobat darajasi. Bu borada O’zbekistonda qator ishlar amalga oshirilmoqda, hozirda 2023 yil 1 may holatiga mamlakatimiz bank bozorida faoliyat ko’rsatayotgan tijorat banklarining soni 34 taga etdi, shundan 2 ta tijorat banki “APEX BANK” va “HAYOT BANK” aksiyadorlik jamiyatlari 2023 yil mart oyida faoliyat ko’rsatish uchun lizensiyaga ega bo’ldi. Bank ishi nazariyasining asosiy masalalaridan biri bank bozorining optimal tuzilishi hisoblanadi. Bank bozorini strukturalash mezonlari operatsiyalar ob’ektlari, mijozlar guruhlari, bank faoliyati geografiyasi, banklarning konsentratsiyalashuv darajasi va boshqalar bo’lishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 may 2020 yildagi 2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida” gi PF-5992-sonli Farmoniga ko’ra, O’zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo’lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o’zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish belgilab berildi. 2023 yilda davlat ulushi yuqori bo’lgan yirik banklarni xususiylashtirish jarayonini mantiqiy yakuniga etkazish, xususan davlat ulushi mavjud banklar, Qishloq qurilish bank, Xalq banki, Mikrokreditbank, Aloqa bank, Agro bank va Milliy bankni aksiyalarini ommaviy ochiq savdolarga (IPO) olib chiqish hamda Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda Asaka bankdagi transformatsiya jarayonlarining faol fazasiga o’tish belgilab berildi. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, hozirda global darajada banklar sonining umumiy qisqarishi kuzatilmoqda va boshqa moliyaviy institutlarning soni va turi ko’paymoqda.

2. Markaziy bank tomonidan bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sifatining darajasi. Markaziy bankning Bank nazorati qo’mitasi “O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida”gi Qonun talablari asosida tashkil qilingan va doimiy ravishda faoliyat yurituvchi kollegial organ hisoblanadi. Ushbu Qo’mita tomonidan ruxsat berish tartiboti yo’nalishida banklar tomonidan kelishish uchun taqdim qilingan hujjatlarni, jumladan, kredit tashkilotlari ustaviga kiritilgan o’zgartirishlarni ro’yxatdan o’tkazish, kredit tashkilotlarini litsenziyalash, davlat reestridan chiqarish va dastlabki ruxsat berish hamda to’lov tashkilotlarini reestrga kiritish, shuningdek, vakolatxonani akkreditatsiya qilish va repo operatsiyasiga ruxsat berish bilan bog’liq masalalar ko’riladi. Moliyaviy holatni ko’rib chiqish bo’yicha esa, kredit tashkilotlarida prudensial me’yorlar talablarining bajarilishi yuzasidan masofaviy va joyida o’tkazilgan o’rganish natijalari, xususan, banklar faoliyatida mavjud xatarlar bo’yicha o’tkazilgan tematik o’rganishlar natijalari muhokama qilinadi.shu o’rinda aytish joizki, prudensial normativlarga rioya etilmagani, moliyaviy yo’qotishlarga qarshi zaxiralar yaratilmagani, moliyaviy holati to’lovga qobiliyatsiz

bo'lganligi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish orqali Markaziy bankka haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar taqdim qilib kelinganligi sababli, Turkistonbank va Xay-tek banklardan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya, qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'z faoliyatini boshlamagani uchun "International Eco Pay", "Panda internet technology", "Ugnis" kabi to'lov tashkilotlaridan litsenziyalar chaqirib olindi.

3. Davlat bank tizimining kapitallashuv darajasi. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish Strategiyasi doirasidagi ustuvor yo'nalishlari sifatida banklarning kapitaliga qo'yiladigan minimal talablarni oshirish hamda davlat ulushi mavjud banklarning kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega strategik xorijiy investorlarni jalb qilish belgilangan.

4. Milliy valyutaning barqarorligi. Oldingi davrlarda valyuta siyosatidagi cheklovlar, aholining milliy valyutaga nisbatan ishonchsizligi, inflyasiyaning nisbatan yuqori darajasi, shuningdek, muqobil jamg'arma instrumentlarining kamligi banklarda depozitlar dollarlashuv darajasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. So'nggi yillarda iqtisodiyotda nisbatan yuqori real foiz stavkalarining ta'minlanishi, milliy valyuta kursining barqarorligi va milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha banklar tomonidan taklif etilayotgan yuqori foiz stavkalari milliy valyutadagi depozitlarning ko'payishiga xizmat qilmoqda. 2023 yil davomida yalpi talabning susayishi va tartibga solinadigan narxlarning yuqori darajada oshirilmasligi iste'mol bozorlarida narxlar shakllanishiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatsa, fiskal rag'batlantirish va tashqi omillar hisobiga valyuta kursiga bo'ladigan bosimlar narxlarga oshiruvchi ta'sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, bu yil inflyasiya darajasi 7-8 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

XULOSA: Shu o'rinda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin. Bank tizimining iqtisodiy xavfsizligini yaxshilash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirilyapti, jumladan, Markaziy bank tomonidan bank muassasalari faoliyatini nazorat qilish sifatini oshirilmoqda va doimiy monitoring olib borilmoqda, inflyasion targetlash rejimining asosiy elementlaridan biri, bu pul-kredit sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning ochiqligi va bu boradagi shaffoflikning ta'minlanmoqda. Samarali kommunikatsiya siyosatining ishlab chiqilishi va pul-kredit siyosati sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning keng jamoatchilikka o'z vaqtida va tushunarli tilda etkazilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlari inflyasion kutilmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ichki valyuta bozorida likvidlikni doimiy ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Market-meykerlik instituti joriy etildi va ichki valyuta bozorida 2 ta tijorat banki market meyker sifatida faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Market-meyker maqomini olgan tijorat banklariga beriladigan imtiyozlarga qaramasdan, ularning soni sezilarli ko'paymayapti. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining "market-meykerlar" sifatidagi faolligi hamda ularning valyuta kursini belgilashdagi roli oshirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqarilishi zarurdir. Raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va moliyaviy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga sabab bo'luvchi imtiyozli

kreditlash (foizlari bozor foiz stavkalaridan past bo'lgan kreditlar) va direktiv kreditlash (mahalliy hokimlik organlari va davlat idoralari tomonidan kreditlarni belgilab berish) usullaridan bosqichma-bosqich voz kechish choralarini ko'rish; Bank tizimida ajratilayotgan kreditlarning 60 foizi direktiv asosda ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda va aynan ushbu omil ta'sirida tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi yuqori darajada qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 may 2020 yildagi 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-sonli Farmoni.
3. Петрова О.С. Экономическая безопасность банковской системы. «Экономика, право и управление». 2/2015год стр.130
4. Ismailova N. K. Importance of financial security in financial globalization //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2019. – №. 4-3. – С. 37-40.
5. Ismailova N. K. Issues of providing investment security in Uzbekistan //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №. 5-4. – С. 122-125.
6. Исмаилова Н. К. Обеспечение бюджетно-налоговой безопасности-залог безопасности национальной экономики //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – №. 1. – С. 50-53.
7. Ismailova Nasiba Komildjanovna. (2022) PUBLIC DEBT AND FINANCIAL SECURITY OF UZBEKISTAN. E Conference Zone. 2022/6/11. 107-109.
8. Urovov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences). 2021/12